INDIVIDUAL YONDASHUV ASOSIDA TA'LIM BERISH METODIKASI

(5-6 sinflar uchun inglis-tilida o'qitish metodikasida)

Odiljonova Behruza Obidjonqizi Namangan davlat chet tillar instituti 3-bosqich talabasi

Email:odiljonovabehruza@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada individual yondashuv asosida ta'lim berish metodikasining nazariy asoslari, uning pedagogik va psixalogik ahamiati, shuningdek, amalyotda qo'llash usullari keng tahlil etilgan.Ta'lim jarayonida o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olish zaruriyati ilmiy qarashlar asosida yaratilgan hamda ushbu metodikaning samaradorligini asoslab bergan.

Kalit so'zlar: Individual yondashuv, differansial ta'lim, pedagogik texnalogiya, o'quvchi shaxsi, ta'lim samaradorligi, metodika.

Kirish: Bugungi globallashuv sharoitida ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri-har tomonlama rivojlangan,mustaqil fikrlay oladigan va raqobatdosh shaxsni tarbiyalashdan iborat. Bunday natijaga erishish esa an'anaviy bir xil yondashuv asosidagi ta'lim orqali emas, balki, har bir o'quvchining individual asoslarini xisobga olgan holda tashkil etilgan ta'lim jarayoni orqali amalga oshiriladi. Shu nuqtai nazardan individual yondashuv asosida ta'lim berish metodikasi zamonaviy pedagogikaning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida etirof etilmoqda.Jumladan O'zbekistonda ham so'ngi yillarda ta'lim, ayniqsa individual ta'lim berish metodikasiga alohida e'tibor berilmoqda. Xususan muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Ta'lim to'g'risida"gi 2020-yildagi yangi qonunida "Ta'limda har bir o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olish tamoyili mastahkamlanishi va har bir o'quvchining imkoniyati va ehtiyojiga mos ta'lim berish kerak" degan fikrlarni ilgari surgan .Bu individual yondashuvning

huquqiy asosidir. Bundan tashqari 2020-2025 Inklyuziv ta'limni rivojlantirish qarorlari O'zbekistonda alohida ehtiyojli bolar uchun ham individual yondashuv joriy qilindi. Muhim jihatlari shundan iboratki:

Har bir bola uchun individual ta'lim sharoitini yaratish;

Nogironligi bo'lgan bolalarni umumiy maktabga integratsiya qilllish;

Maxsus pedagogik yordam tizimi;

Bu qarorlar individual yondashuvni amalyotga olib kiradi. Yana qo'shimcha qilib aytish mumkinki yangi O'zbekistonda 2022-2026 taraqqiyot strategiyasida ham ta'lim alohida yo'nalish sifatida belgilanadi. Bu strategiya orqali quyidagi o'zgarishlar ko'zda titilgan:

Talimni shaxsga yo'naltirish;

Har bir o'quvching qobilyatini rivojlantirish;

Individual o'quv yo'llarini (trakyektoriyalarni)joriy etish;

Bu hujjat ta'limni individual yondashuv asosida rivojlantirishni davomat ettiradi. Shuni ham alohida takidlab aytish zarurki, so'ngi yillarda 2023-2025 zamonaviy ta'lim islohatlari quyidagi yangiliklarni joriy qildi. Bu yangiliklar quyidagilardan iborat:

Raqamli ta'lim platformalari orqali individual o'qitish;

O'quvchilarni diagnostik baholash tizimi;

Har bir o'quvchining rivojlanishini monitoring qilish;

Bundan yaqqol ko'rinib turibdiki yurtimizda so'ngi yillarda ta'limga e'tibor keskin oshib, yangi yondashuvlar joriy etildi.

Asosiy qism: Individual yondashuvning mohiyati. Individual yondashuv-bu o'qtuvching o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etilishidir. Bu metod orqali har bir o'quvchi o'z imkoniyatlariga mos ravishda bilim oladi va rivojlanadi. Pedagogik olim Lev Vygostky takidlaganidek,"O'qitish rivojlanishdan oldinda borishi kerak". Bu fikr shuni anglatadiiki, o'qituvchi o'quvchning hozirgi darajasini emas,balki uning rivojlanish aqliy salohiyati va darsni o'zlashtirish imkoniyatini hisobga olish zarur

Individual yondashuvning ilmiy asoslari. Individual yondashuv metodikasi ko'plab pedagok va psixalog olimlarning ilmiy qarashlariga tayanadi. Ko'plab chet el olimlari qatori bizning ham sharq allomalarimiz hamda zamonaviy davrimizning pedagogik olimlari va o'zbek xalqimizning milliylikga asoslangan pedagogikasi bilan ham boyitilgan.Masalan o'zbek pedagogik tafakkurining ildizlari qadimiy sharq allomalarimizga borib taqaladi. Al-Xorazmiy,Abu Nasr al-Farobiy, Abu-Rayhon,Al-Beruniy, Ibn Sino kabi ko'plab mutafakkirlarimiz "Ta'lim shaxsga yo'naltirilgan bo'lishi kerak", "Bilim olish jarayoni faol va individual kechadi", "Har bir insonning qobilyati va tafakkuri turlicha" degan umumiy g'oyalarni aytib o'tishgan.Xusasan: Al-Xorazmiy savol-javob metodi orqali aytishni tashkil qilib, o'quvchining faol ishtirokini muhim deb bilgan.Bu metod individual yo'ndashuvning dastlabki ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Bundan bilib olsak bo'ladiki individual pedagogika IX asrdan rivojlana boshlagan. Shuning bilan birga O'zbekistonda pedagogika fanining rivojiga katta hissa qo'shgan pedagoglardan biri Siddiq Rajabov "Ta'lim jarayonida o'quvchi o'quvchi shaxsini rivojlantirish asosiy maqsad bo'lishi kerak va har bir o'quvchiga individual yondashuv zarur"degan fikrlarni targ'ib qilgan. Bundan tashqari Jean Piaget tomonidan ishlab chiqilgan kognative rivojlanish nazariyasi ham individual yindashuvni asoslab beradi.Uquyidagicha fikr bildirgan: "Bilim –bu tayyor shaklda berilmay balki o'quvchi tomonidan faol shaklda quriladi". Bu esa

o’quvchining yosh xususiyatlari va fikrlsh darajasiga mos metodlarni tanlash zarurligini ko’rsatadi.Amerikalik pedagog John Dewey esa ta’lim jarayonini markazida o’quvchi turishi kerakligini takidlab: “Ta’lim hayotning o’zi ,unga tayyorgarlik emas”- deya qayd etadi.Bu fikr individual yondashuvning amaliy ahamiyatini yanada kuchaytiradi. Shuningdek Maria Montessori o’z metodikasida har bir bolaning mustaqil rivojlanishiga urg’u berib “Bola – bu o’zini o’zi rivojlantiruvchi shaxs “, degan.

Xalqimizning milliylikga asoslangan pedagogikasida esa “Har bir bola o’ziga xos tarbiya talab qiladi”, “Har kimning o’z yo’li bor” degan xalqona qarashlari va tarbiya individual yondashuv qadimdan mavjuda bo’lgan degan g’oyalarni doimiy ravishda amalda tadbiq qilib kelishgan.

Individual yo’ndasguvning pedagogik mohiyati. Individual yondashuv - bu o’qtuvchining o’quvchilarning individual xususiyatlarini ,bilim darajasini,qobilyati,qizish,psixalogik holatini hisobga olgan holda ta’limni tashkil etishdir. Mazkur metodikaning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

Shaxsga yo’naltirilganlik;

Differansial yondashuv;

Moslashuvchanlik;

Individual yondashuvni qo’llab –quvvatlash;

Bu tamoyillardan ko’zlangan maqsad ta’lim jarayonini samarali tashkil etishga qaratilgan.

Individual yondashuv metodlari va ularning amaliy qo’llanishi .

1.Differansial ta’lim metodi:Bu metod o’quvchilarni bilim darajasiga qarab gruhlarga

ajratish va ularga mos topshiriqlar berishga yordam beradi. Masalan, Ingliz tili darsida mazvu beriladi,lekin topshiriqlar turlicha bo'ladi.Bitta mazvu tanlanadi misol uchun (My family)1-guruh: family members nomlarini yozadi;2-guruh: gap tuzadi(This is my mather);3-guruh: oila haqida matn yozadi;

Bu metodning natijasi hamma bir xil mavzu o'rganadi lekin turli darajada.

2. Individual ta'lim tryektoriyasi. Har bir o'quvchi uchun alohida rivojlanish yo'li belgilanadi.

3. Diagnostik baholash metodi.O'quvchining bilim darajasimuntazam tahlil qilinadi va unga mos yondashuv belgilanadi.

4. Konsaltative yondashuv.O'qtuvchi o'quvchilar bilan individual ishlaydi.

5.Qiziqishlarga asoslangan ta'lim.O'quvchilarning sgaxsiy qiziqishlari dars jarayoniga integratsiya qilinadi.

Bu borada Corol Anna Tomlinson differsial ta'limni quyidagicha izohlaydi: "Samrali ta'lim- bu barcha o'quvchilarga bir xil emas ,balki balki har biriga yondashuvni talab qiladi".

Individual yondashuvning samaradorligi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki,individual yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim:

O'quvchilarning bilim olish mativatsiyasini oshiradi**;**

O'zlashtirish darajasini yaxshilaydi;

Mustaqil fikrlashni rivojlantiradi;

Ijtimoiy faollikni oshiradi;

Bundan tashqari,o’quvchi o’zini qadrlangan shaxs sifatida his qiladi. Bu esa uning psixalogik rivojlanishiga ijobiy tasir ko’rsatadi.

Muammolar va ularni bartaraf etish yo’llari .Individual yondashuvni amalga oshirish jarayonida quyidagi muammolar yuaga kelishi mumkin:

Sinfda o’quvchilar sonining ko’pligi;

Vaqtning yetishmasligi;

O’qtuvchuning metodik tayyorgarligi yetarlicha emasligi;

Ushbu muammolarni hal etish uchun:

Zamonaviy pedagogik texnalogiyalardan foydalanish;

Raqamli ta’lim vositalarini joriy etish;

O’qtuvchilarning malakasini oshirish zarur;

Xulosa: Xulosa qilib aytganda individual yondashuv asosida ta’lim berish metodikasi zamonaviy ta’lim taizmining ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu metodika o’quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish orqali ta’lim samaradorligini oshiradi va shaxsning har tomonlama rivojlanisini taminlaydi.Shuning bilan birga o’zim olib borgan individual yondasuvga oid “Differensial ta’lim metodi”, “Individual topshiriqlar metodi”, “Diagnostik baholash metodi” kabi ko’plab metodlarni amalyot davrimda qo’llab shunday xulosaga keldimki bu metodlar orqali o’quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda o’quvchilarga yamada samarali va tushumarli ta’lim berish hamda o’quvchilarni bilim darajasini, darsga bo’lgan qiziqishini va qobilyatini yanada oshirish mumkin. Bundan tasgqari mashhur pedagogik olimlarning ilmiy qarashlari ham individual yondashuvning zarurligini tasdiqlaydi. Shu bois, ta’lim jarayonida ushbu metodikani keng qo’llash muhim

ahamiyot kasb etadi. Bundan tashqari individual yondashuvni ta'lim jarayonida samarali qo'llash o'qtuvchidan yuqori kasbiy mahorat,zamonaviy metodlarni bilish va o'quvchilar bilan ishlashda moslashuvchalikni talab qiladi. Ushbu yondashuvni keng joriy qilish orqali ta'lim jarayoning samaradorligi oshadi va har bir o'quvchi o'z salohiyatini to'liq namayon eta oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Lev Vygotsky.Mind in society:The Devolopment of Highe Psychological Procress.Cambridge Harward Unversity Press,1987.

2.Jean Piaget.The Psychological Intelligence Londan:Poutledge,1950.

3.John Dewey.Democracy and Education .New York:Macmillan,1916.

4.Maria Montessori.The Montessori Method.New York:Frederick A.Stokes Company ,1912.

5.Corol Ann Tomlinson .How to Differentiate Instruction in Academically Diverse Classrooms ASCD,2001.

6.Al- Xorazmiy .Ilmiy meros va pedagogik qarashlar(taraixiy manbalar asosida).

7.Ibn Sino.Donishnoma va pedagogik qarashlar

8.Al-Farobiy. Fozil odamlar shahri(ta'lim va tarbiya haqida qarashlar)

9.Rajabov.S.Pedagogik asoslari.Toshkent:o'qtuvchi,1990.

10.O'bekiston Respublikasi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun .Toshkent,2020.

11.O'zbekiston Respublikasi.2022-2026-yillarda mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi,Toshkent , 2022.